

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA “BODY LANGUAGE” DAN FOYDALANASIZMI?

Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi

E-mail: s.sanakulova87@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish mazmuni, dars jarayonida pedagogik va psixologik yondashuvning ahamiyati ochib berilgan. Shu bilan birga dars jarayonida tana tilidan foydalanish usullari, samaradorligi hamda to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tana tili, noverbal, yosh xususiyatlari, individual, imo-ishora, tana harakati, yuz ifodasi, taqlid, ko‘rgazma, diqqat, tafakkur.

THE USAGE OF BODY LANGUAGE IN TEACHING ENGLISH

ABSTRACT

this article is devoted to a current topic in the field of education, that is, means of teaching English for young learners using pedagogical and physiological approaches. It is given that ways of using body language and recommendations for proper usage in English lessons.

Key words: body language, nonverbal, characteristics of young learner, individual, gesture, body movement, facial expression, imitation, mentality

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni to‘g‘ri tarbiyalash, samarali o‘qitish uchun bola rivojlanishiga doir o‘zgarishlarni, yosh davrlarga xos xususiyatlarni bilish va hisobga olish lozim. Chunki ularning o‘sishi, rivojlanishi, ruhiy jihatdan taraqqiy etishi turli yosh davrlarda turlicha bo‘ladi. O‘qituvchi bolani har tomonlama bilishi jumladan, bolaning yoshi, individual xususiyatlarini doimo o‘sishda, rivojlanishda, o‘zgarishda olib qarash va fikr yuritish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziqqonligi, o‘rganishga intiluvchanligi, diqqatining beqarorligi, uyalchangligi va o‘yinqaroqligi kabi xislatlari bilan namoyon boladi. O‘qituvchi esa bu xislatlarni hisobga olgan holda darsni to‘g‘ri tashkil etish

orqali o‘z pedagogik mahoratini ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida didaktik o‘yinlardan ta’lim metodlari sifatida foydalanish odat tusiga aylandi. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o‘quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og‘zaki bayon etish, ko‘rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo‘llaniladi.

Xorijiy til o‘qitishda o‘rganuvchining ma’lumotni qabul qilish qobiliyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’lumotlarni o‘zlashtirishga 4 usulda yondashishi mumkin. Bular ko‘rish, esitish, ushslash ya’ni his qilish va harakatlar orqali ma’lumotlarni qabul qilishi kuzatiladi. O‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida aytish mumkinki, aksariyat o‘quvchilarimiz ko‘rish va harakatlar orqali ma’lumotlarni eslab qoladi. Bundan kelib chiqqan holda, dars jarayonida qo‘llaniladigan mashq va topshiriqlar tanlanishi talab etiladi.

Ko‘rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo‘lib, uning yordamida ko‘ruv o‘quvi va tafakkur o‘zaro uyg‘unlashadi. Ko‘rgazmali metodlar eshitish va ko‘rishi o‘zaro uyg‘unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni og‘zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanish ta’limning samaradorligini oshiradi.

Boshlang‘ich sinflarga ingliz tilini o‘qitishda uchraydigan qiyinchililarni soddalashtirish uchun o‘qituvchi tana harakatidan foydalanishi mumkin. Bu ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishi, ingliz tilidagi so‘zlarni eslab qolishi va barcha nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tana tili (Body language) – insonlar o‘rtasida muloqot qilishda va tana a’zolari orqali namoyon etishda muhim vosita hisoblanib, uni ko‘rish, ushslash, harakatlar, imo-ishora va yuz ifodalarida ko‘rishimiz mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqati beqaror va ta’sirchan ekanligi ma’lum miqdorda ularning fanga bo‘lgan qiziqishiga ham bog‘liq. Dars davomida asosan yorqin, jonli va noodatiy vaziyatlarga e’tiborini ko‘proq qaratadi va ongsiz ravishda eslab qolishga muvaffaq bo‘ladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda tana tilidan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Ingliz tili o‘qitishda tana tilining asosiy 4 kategoriyasi bor: ko‘z orqali munosabat, imo-ishora, tana harakati va yuz ifodasi. O‘qituvchining o‘rinli va chiroyli harakati sinfdagi o‘quvchilarining qiziqishini oshirishi va osonlik bilan eslab qolishiga yordam beradi.

Ko‘z orqali munosabat darsda noverbal aloqaning eng ahamiyatli turi hisoblanadi.

Odatda o‘qituvchi ko‘zi orqali fikrini bildiradi yoki kuladi. O‘qituvchi ko‘z bilan munosabatda bo‘lganda, o‘quvchilar o‘zlarini e’tiborda yoki nazoratda ekanligini his qiladi. O‘qituvchi dars davomida barcha o‘quvchilarga e’tibor qaratganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Har bir o‘quvchi nazoratda ya’ni o‘qituvchisining ko‘zi unda ekanligini bilishi kerak. Ko‘z orqali ikki usulda munosabatda bo‘lish mumkin. Birinchisi – atrofga qarash, darsda foydalaniladigan samarali usullardan hisoblanadi. Bu o‘quvchilarning diqqatiga ta’sir etishi va ularni o‘ziga qaratishga, xuddi ulardan savolga javob berishini so‘ramoqchi bo‘lgandek tuyuladi. Bu usul sinfni nazorat qilishda o‘qituvchilarimiz tomonidan ko‘p qo‘llaniladi. Ikkinchisi esa diqqat bilan qarash bo‘lib, odatda yomon xulq-atvorli o‘quvchilarni tanqid qilishda ishlatalidi. Bunda o‘qituvchi o‘zini jiddiy va ishonchli tutishi lozim. Umuman aytganda, o‘quvchi bilan ko‘z orqali munosabatda bo‘lish har qanday holatda muhimdir.

Imo-ishoralar – qo‘l va barmoqlar harakati orqali fikrni bayon etish yoki munosabatda bo‘lish tushuniladi. Ingliz tili o‘qitishda imo-ishoralardan foydalanish ahamiyatli sanaladi. Til o‘rganishning ilk bosqichlarida o‘quvchilar qiziqqon va bilimga chanqoq bo‘ladi, lekin fan murakkablashgani sari ularda aks munosabatlar yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari taqlid qilishni va serharakat bo‘lishi ayni muddaodir. Masalan, o‘qituvchi yangi so‘zni yoki gapni o‘rgatayotganda imo-ishoralardan foydalanishi mumkin: “open the book; open the door”. Ba’zi o‘quvchilar o‘qituvchi aytgan so‘zni yoki gapni tushunmasligi mumkin, lekin ular o‘qituvchining ishorasi orqali tushunadi va eslab qoladi. Agar o‘quvchi to‘gri harakatni bajarsa, uning xorijiy til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlash uchun uni olqishlash va maqtab qo‘yish o‘rinlidir. Javob noto‘g‘ri bo‘lsa ham o‘qituvchi bosh harakati orqali bildirishi va keyingi safar yaxshiroq harakat qilishi kerakligini aytishi lozim. Bu ishoralar tabiiy va muvofiqdir. O‘quvchilar fikrini chalg‘ituvchi qo‘l harakatlaridan ehtiyyot bo‘lishi kerak. Bir so‘z bilan aytganda, imo-ishoralar va ravon nutq birgalikda o‘quvchilarning o‘rganishi va qobiliyatlarining rivojlanishi uchun yaxshi sharoitni yaratadi.

Tana harakati – insonning o‘tirishi, turishi, yurishi va harakatlanishida aks etib, tananing umumiy holatini – ayniqsa, bel, yelka va bosh qismlarining harakatini namoyon etadi. Tana holati noverbal nutqni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Tana harakatlari odatda o‘ziga bo‘lgan ishonchni, toliqish yoki holatini ifodalovchi indikatorlar hisoblanadi. Ingliz tili darslarida oddiygina o‘tirib-turish mashqlari ham o‘quvchilarning faolligini oshirishi va diqqatni yangilashga yordam beradi.

Tana harakati ayniqsa, fe’llarni o‘rganish uchun eng samarali usullardan

hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchidan to‘g‘ri va qo‘pol bo‘lmagan harakatlar talab etiladi.

Yuz ifodalari – insonning aqli, idroki, fikru-o‘yi, asab holatini to‘la namoyon etishga xizmat qiladi. Insonlarning mammuniyati, jahli, xavotiri, o‘yi, qayg‘usi va qo‘rquvi ularning yuz ifodalarida aks etadi. Ingliz tili darslarida o‘qituvchining nutqi va yuz ifodasi bir-biriga monand bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, dars jarayonida o‘qituvchi qiziq ma’lumot haqida gapirganda, uning yuz ifodasida mammuniyatni, agar qayg‘uli bo‘lsa, g‘amgin ifodani ko‘rish mumkin. Bu aktyorlik qobiliyati o‘qituvchining mahoratini ko‘rsatib, o‘quvchilarni jalb qilishga erishadi.

Ingliz tilini o‘qitishda tana harakatlari jonli til hisoblanib, ularni to‘g‘ri va mos ravishda ishlatilishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni mustahkamlanishiga va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchi darsda 1-10 bo‘lgan sonlarni o‘rgatmoqda. Bu jarayonda tana tilidan foydalanishi mumkin. Avvalo, o‘qituvchi sonlarni barmoqlari bilan ko‘rsatgan holda o‘qiydi. O‘quvchilar esa tezda takrorlay boshlaydi va barmoqlari harakatga keladi. Bir vaqtning o‘zida sonlarni aytishni o‘rganadi hamda barmoqlar harakati ularning faolligini oshiradi.

Demak, dars jarayonida tana harakatlaridan o‘rinli foydalanib, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, tez va oson yo‘l bilan o‘rganishga erishish mumkin. Ayniqsa, ingliz tili darslarida so‘z boyligini oshirishda va so‘zlarni eslab qolishda samarali usullardan hisoblanadi.

Biroq shuni ham yodda tutish kerakki, tana harakatidan ko‘p foydalanish o‘quvchilar diqqatini chalg‘itishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ustozlarining xatti-harakatlariga taqlid qilishga va ularga o‘xshab gapirishga harakat qiladi. Buning natijasida o‘qituvchining qo‘pol harakati o‘quvchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan, dars jarayonida tana harakatlaridan o‘rinli, mos va ijobjiy ko‘rinishda foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ҳошимов Ў.Х., Ёқубов И.Я. Инглиз тили ўқитиши методикаси. – Т.: Шарқ, 2003. – 302 б.
2. Asher, J. (2007). TPR: After forty years, still a very good idea. Retrieved on July 2013 from: <http://www.tpr-world.com/japan-article.html>
3. Cameron, L. (2008). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press.

4. Curtain, H. & A. Dahlberg (2010). Languages and Children, Making the Match: New Languages for Young Learners, Grades K-8. Boston: Pearson Education Inc.
5. Ellis, G. (2008). Promoting diversity through children's literature. British Council Retrieved on September 20, 2012
6. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Harlow: Pearson Education Limited.
7. Krashen, S. (1998). Still a Very Good Idea. Novelty, Vol. 5, Issue 4. Retrieved on 10 July 2013 from: <http://ipisun.jpte.hu/~joe/novelty/>
8. Larsen-Freeman, D. (2004). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.